

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 460 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB O'LSHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHI QARISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHI QARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI.....	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI.....	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Isakova Naima Ikromjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Ekonometrika” kafedrasi PhD v.b dotsenti
ORCID: 0009-0008-3370-6882

Annotatsiya. Maqolada uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimiz salohiyati, qudrati hamda iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan muhim ustuvor yo'nalish, ya'ni korxonalar faoliyatida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash va uning ayrim ekonometrik modellari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, investitsion muhit, ICOR (incremental capital-output ratio — kapital sig'imining o'sish koeffitsienti), BERI indeksi, investitsion loyiha.

Abstract. The article highlights an important long-term priority that is crucial for increasing the potential, resilience, and competitiveness of the national economy, namely the assessment of investment efficiency in enterprise activities and several econometric models used for this purpose.

Keywords: investments, investment environment, ICOR (incremental capital-output ratio), BERI index, investment project.

Аннотация. В статье выделено важное долгосрочное приоритетное направление, имеющее решающее значение для повышения потенциала, устойчивости и конкурентоспособности экономики страны, а именно оценка эффективности использования инвестиций в деятельности предприятий и некоторые эконометрические модели данного процесса.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная среда, ICOR (приростная капиталоемкость), индекс BERI, инвестиционный проект.

KIRISH

Iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida har qanday mamlakat o'z iqtisodiyotiga turli xil sarmoyalarni, xususan investitsiyalarni jalb qilmasdan taraqqiy eta olmaydi. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish, asosiy fondlarni yangilash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash investitsiyalarni tashkil etish va ularni samarali boshqarish orqali ta'minlanadi.

Shu sababli mamlakatimizda investitsiya muhiti barqarorligi va jozibadorligini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, yangi me'yoriy-huquqiy baza shakllantirilmoqda hamda chet ellik investorlar uchun bir qator moliyaviy imtiyozlar yaratilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi da xizmatlar sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, joylarda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha dolzarb vazifalarni belgilab berdi. Ushbu yo'nalishdagi asosiy maqsad — infratuzilmasi mavjud hamda rivojlanishi qulay hududlarga investorlarni jalb etish orqali sanoatning tizimli rivojlanishini ta'minlashdan iborat.



“Sanoat bor joyda ish o‘rinlari va daromad bo‘ladi, uy-joylar, ijtimoiy obyektlar, shaharchalar barpo etiladi”, — deb ta’kidlagan Prezidentimiz investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat muhim ahamiyati va ularni jalb etishning dolzarbligini alohida e’tirof etganlari bejiz emas [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon hamjamiyatida globallashuv jarayoni kechmoqda. Globallashuv jarayoniga qo‘shilish — bu dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalardagi davlat siyosatini o‘zaro manfaatli asosda mazkur davlatlar tajribasi va yondashuvlariga moslashtirishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston jahon hamjamiyati oldida bugungi kunda o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasidagi geografik joylashuvi, tabiiy resurslari tarkibi va zaxiralari, hukumat tomonidan olib borilayotgan investitsiya siyosati hamda boshqa omillar bilan muhim o‘rin egallaydi.

Bu holat, o‘z navbatida, investitsiyalarni tashkil etish va samarali boshqarish uchun qulay investitsion mexanizmi barpo etish zarurligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy o‘rinishning eng muhim omillaridan biri investitsiyalar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning barqaror faoliyati va izchil rivojlanishining hal qiluvchi shartlaridan biri investitsiya loyihalariga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalarning samaradorligini ta‘minlashdir. Loyihani moliyalashtirish to‘g‘risidagi qarorlar esa, avvalo, korxonaning oldiga qo‘ygan strategik maqsadlari bilan belgilanadi.

Inflyatsiya darajasining yuqoriligi, kapital qiymatining qimmatligi hamda soliq qonunchiligidagi beqarorlik bilan tavsiflanadigan o‘tish davrida sanoatni rivojlantirish jarayoni yanada murakkablashadi.

Korxonaning rivojlanishi turli yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Xususan, ayrim korxonalar yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni rejalashtirsa, boshqalari yangi texnologik asbob-uskunalarini xarid qilish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga intiladi. Yana bir guruh korxonalar mahsulotlarni sotishning yangi tuzilmasini shakllantirishga e’tibor qaratadi. Rivojlanish yo‘nalishlari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat shundaki, bugungi kunda deyarli har qanday korxona investitsiya loyihasini amalga oshiradi yoki bir nechta investitsiya loyihalari kombinatsiyasiga ega bo‘ladi. Shu bois loyihani ishlab chiqish, uning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, potensial investorlarga taqdim etish, moliyalashtirish hamda samarali boshqarish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Biroq bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining investitsion sohasi holatini tavsiflovchi jarayonlar takror ishlab chiqarish jarayonlari rejimini oldindan belgilab bermoqda. Bu jarayonlar investitsiyalar samaradorligi va ko‘lamining pasayishi kabi omillarning salbiy ta’siri ostida shakllanmoqda.

Korxona faoliyatida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash, ekonometrik modellashtirish hamda boshqarish muammolarining yechimiga qaratilgan ilmiy ishlar qatorida N.V. Igoshin, B.A. Koltinyuk, N.N. Levensev, G.M. Kostyunina, A.S. Neshitoy, I.V. Sergeev, I.I. Veretennikova, I.Yu. Tkachenko, E.S. Xazanovich, shuningdek, Sergio Perelman va Barnabé Walheer [2], M.R. Hesamzadeh, J. Rosellón, S.A. Gabriel, I. Vogelsang [3] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin.

Investitsiyaning mohiyatini yoritishda milliy va xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ko‘plab olimlar ushbu masalaga o‘z ilmiy qarashlari bilan e’tibor qaratgan. Xususan, investitsiyalarni tashkil etish va boshqarishning mazmun-mohiyati bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Jumladan, rossiyalik iqtisodchilar A.Yu. Andrianov va S.V. Valdaysev investitsiyalarga quyidagicha ta’rif beradilar: “Investitsiyalar — davlat kapitali va xususiy kapitalning foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida yoki xorijiy mamlakat iqtisodiyotiga uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalaridir” [4]. Ko‘rinib turibdiki, ushbu ta’rifda investitsiyalarning tarkibiy shakllari batafsil ochib berilmagan bo‘lib, investitsiyalarni asosan moliyaviy qo‘yilmalar sifatida talqin qilish ustuvor o‘rin egallaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotda korxonalar faoliyatida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash masalasi nazariy tahlil hamda ekonometrik yondashuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimli yondashuv, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Investitsiya muhitining jozibadorligini baholashda BERI indeksi ko‘rsatkichlari, investitsiyalar samaradorligini aniqlashda esa ICOR koeffitsiyenti asosiy metodik instrument sifatida qo‘llanildi.

Shuningdek, investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash maqsadida iqtisodiy-statistik tahlil hamda ekonometrik modellashtirish elementlari qo‘llanildi. Olingan natijalar asosida investitsiya resurslarini oqilona yo‘naltirish, risklarni kamaytirish va investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida keltirilgan ta'rif investitsiyalarning iqtisodiy-huquqiy tabiatini to'liq ochib beradi: "investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va (nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar; investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui" [5]. Ushbu ta'rif investitsiyalarning ham real ham moliyaviy turlari mazmunini qamrab oladi.

Umuman olganda, investitsiyalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. Investitsiyalarning tavsiflanishi

Xavfsizlik, daromadlilik, kapitallashuv va likvidlikdan tashqari investitsiyalarning o'ziga xos muhim belgisi — aniq maqsadlarga yo'naltirilganligidir. Investorlar e'tiborini tortadigan iqtisodiyot ham o'z strategik maqsadlariga erishishga intiladi. Bu maqsadlar samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi bozorlarga kirib borish kabi vazifalarni o'z ichiga olishi mumkin. Shu sababli o'zaro manfaatlarining mos kelishi, ishonchli hamkorlik munosabatlari hamda kirib borish sharoitlarini hisobga olish investitsiyalarning bir mamlakatdan boshqasiga yo'naltirilishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan tarkibiy qayta qurish jarayonlarining samarali amalga oshirilishi bevosita investitsiya siyosatini oqilona yuritish bilan bog'liq. O'zbekiston uchun investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishi, avvalo, ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilishi lozim. Xorijiy tajriba ham shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda dastlab industrial tarmoqlar jadal sur'atlarda taraqqiy etgan va keyinchalik barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam asos shakllangan.

Bu boradagi vazifalar Vazirlar Mahkamasi komplekslari doirasida tahlil qilinib, xorijiy investitsiyalar ulushi o'tgan yilga nisbatan kamaygan soha va tarmoqlar alohida ko'rsatib o'tildi. Yil yakuniga qadar qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, ularni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga talab yuqori bo'lgan soha va hududlarga yo'naltirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi hamda ushbu resurslarning o'zlashtirilishi qat'iy nazoratga olindi.

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiya faoliyati masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda, ayniqsa uning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turli modellar yordamida investitsiya loyihalarini tahlil qilish mumkin. Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniq belgilash ham muhim shart hisoblanadi.

Investitsiyalar samaradorligini baholash uchun ko'plab usullar ishlab chiqilgan. Xususan, Sicheva N.V.ning maqolasida [6] investitsiyalar samaradorligini baholashning uch bosqichli metodologiyasi tavsiflanib,



unda asosiy e'tibor modelni shakllantirish hamda qaror qabul qilish jarayonini yanada asosli tashkil etishga qaratilgan. Mazkur yondashuvda investitsiya samaradorligini baholash ma'lum bir investor uchun investitsiya variantlarini reytinglash orqali ifodalanadi.


Voskresenskiy V.V.ning maqolasida [7] qayd etilishicha, xorijiy amaliyotda investitsiyalar samaradorligi statik va dinamik usullar yordamida baholanadi. Bunda investitsiya samaradorligi vaqt omilini hisobga olgan holda yoki vaqt omilisiz, tegishli ko'rsatkichlar qiymatlariga asoslangan holda aniqlanadi.

Yana bir yondashuv — investitsiya loyihalarining tijorat samaradorligini baholash metodologiyasidan foydalanishdir. Kirillov Yu.V. va Dosuyeva Ye.Ye. [8] tomonidan taklif etilgan yondashuv loyihani vaqt omili, xavf, noaniqlik va inflyatsiyani hisobga olgan holda tahlil qilish, shuningdek, baholovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Iqtisodiy globallashuv sharoitida mamlakatimizda har tomonlama qulay investitsiya muhitini doimiy ravishda yaxshilab borish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bunda davlatning asosiy vazifasi kapital jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirishdan iborat. Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb qilish imkoniyatlariga ega bo'lib, bunga quyidagi omillar xizmat qiladi: kafolat va imtiyozlarni nazarda tutuvchi qonun hujjatlarining mavjudligi; xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishi; raqobat muhitining shakllanganligi; investitsiya infratuzilmasining yaratilganligi va rivojlanib borishi; siyosiy barqarorlik; geografik joylashuvning qulayligi; boy mineral-xomashyo resurslari; qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanganligi; arzon hamda malakali mehnat resurslarining mavjudligi va boshqalar.

Har qanday investor muayyan mamlakat yoki hududga investitsiya kiritishdan avval ushbu hududning investitsiya muhitini baholaydi va uning jozibadorlik darajasini aniqlashga intiladi. Bunda yuqorida keltirilgan omillar o'rganiladi, tahlil qilinadi va natijada investitsiya qarorlari qabul qilinadi. Bugungi kunda investitsiya qarorlarini qabul qilishda investitsion muhitni real baholash uchun PIMS (Profit Impact of Market Strategy), SWOT (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats), TOWS kabi samarali tahlil usullaridan foydalaniladi.

Qabul qiluvchi mamlakatning investitsiya muhiti xorijiy investorlar tomonidan baholanishida, birinchi navbatda, uning xavfsizligi, investitsiyalash maqsadlariga muvofiqligi, mamlakatga xos tavakkalchiliklar darajasi hamda investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlariga e'tibor qaratiladi. Konsessiya sharoitlari, eksport sanoati hududlari, erkin savdo zonalar, bojxona bojlari amal qilmaydigan hududlarning mavjudligi kabi omillar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Ak

2-rasm. Xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibadorligini (maftunkorligini) baholashning BERI indeksi [9]

Xorijiy investor uchun yuqorida qayd etilgan barcha omillar muhim hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida investitsiya loyihalarini baholaydigan, investitsiyalar yo'naltirilishi

rejalashtirilayotgan davlatlarning investitsiya muhitini o'rganadigan hamda aniq xulosalar va tahliliy ma'lumotlarni taqdim etuvchi maxsus firmalar va tashkilotlar faoliyat yuritadi.

2-rasmdan ko'rinadiki, BERI indeksiga kiritilgan ko'rsatkichlar orasida siyosiy barqarorlik (0,12 ball) eng yuqori ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, G'arb ekspertlari harbiy harakatlar yoki ichki vaziyatning keskinlashuvi, shuningdek iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik tufayli Gruziya, Moldova hamda Tojikistonni reytinglarda so'nggi o'rinlarga qo'ygan, ya'ni mazkur mamlakatlar BERI indeksining eng past ko'rsatkichlari darajasiga ega bo'lgan.

Mazkur usulning mohiyati shundan iboratki, obro'li ekspertlarni tanlash asosida ularga 5 balli shkala (0 dan 4 ballgacha, ularning vaznli yig'indisi 1 ga teng) bo'yicha 15 ta asosiy mezon asosida mamlakat riskini baholash taklif etiladi. Ushbu usulda baholash mezonlari va ularning qiymatlari quyidagilardan iborat [10]: siyosiy barqarorlik (0,12); xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabat (0,06); milliy lashtirilish xavfi (0,06) — agar mamlakat qonunchiligida mulkni haq to'lamasdan ekspropriatsiya qilish ko'zda tutilgan bo'lsa, 0 ball qo'yiladi; valyutaning devalvatsiya qilinishi ehtimoli va darajasi (0,06); to'lov balansining holati (0,06); biznesning byurokratiyalashuv darajasi (0,04); iqtisodiy o'sish sur'ati (0,10); valyutaning erkin almashinuv darajasi (0,10); shartnoma majburiyatlarini bajarish darajasi (0,06); mehnat unumdorligi darajasi va ish haqi xarajatlari (0,08); yuridik va marketing maslahatlarini olish hamda malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati (0,02); aloqa va transport infratuzilmasi holati (0,04); davlat organlari va jamoat tashkilotlarining munosabatlari (0,04); qisqa muddatli kreditlarni olish shartlari (0,08); uzoq muddatli kreditlar hamda xususiy kapitalni jalb qilish va undan foydalanish shartlari (0,08).

Umuman olganda, BERI xizmati ushbu yo'nalishda katta obro' qozongan tashkilotlardan biridir. Mazkur tashkilot kapital import qiluvchi mamlakatlardagi investitsiya muhitini tahlil qilib, investitsiyalar risklilik darajasini aniqlab beradi. BERI xizmati turli indekslar orqali investorlarning xorijiy mamlakatlarga investitsiya kiritishidagi risk darajasini baholab boradi. Hozirda ushbu xizmat 55 dan ortiq kapital import qiluvchi mamlakatlarning investitsiya muhitini 15 ta ko'rsatkichni qamrab oluvchi ball mezonlari asosida baholamoqda. Bunda mamlakat investitsiya muhiti qanchalik yuqori ballga ega bo'lsa, u shunchalik barqaror mamlakat sifatida baholanadi. Ball indekslarini hisoblashda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'siri ham inobatga olinadi. Shuningdek, tashkilot faqat joriy davr holatini emas, balki istiqbolda kutilayotgan o'zgarishlarni ham hisobga oladi.

Bunday xizmatlarni O'zbekistonda ham tashkil etish xorijiy investorlar uchun ham, ichki investorlar uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda investitsiyalar samaradorligini aniqlash ularni safarbar etish istiqbollari bashoratlashda ham muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur jarayon iqtisodiyot bo'yicha investitsiyalar taqsimotining oqilona yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Shu maqsadda foydalaniladigan ICOR (incremental capital-output ratio) koeffitsiyenti asosiy kapitalga kiritilgan mablag'larning kelgusi yilda YAIM o'sishiga ta'sirini baholash imkonini beradi hamda YAIMda investitsiyalar salmog'ining keyingi yildagi YAIMning qo'shimcha o'sish sur'atiga nisbatini ifodalaydi.

ICOR koeffitsiyenti investitsiya resurslarining samarali ishlatilishini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi: u qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik ijobiy baholanadi va aksincha [11].

Investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, kelgusida investitsiyalash manbalarini yaratish uchun ham xizmat qiladi. Shu sababli yalpi investitsiyalarning YAIMga nisbatan ulushi YAIM o'sish sur'atidan 4–8 marotaba yuqori bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, yalpi investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori hamda uning o'tgan yilga nisbatan o'sish darajasini aniqlash investitsiyalar samaradorligini real baholashning muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, muayyan tarmoq bo'yicha yalpi investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda joriy davrda tarmoqda band bo'lgan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha investitsiyalar miqdorini hisoblash modeli ham amaliy jihatdan foydalidir.

$$ICOR = I : \Delta YAIM$$

Bu yerda: I — o'tgan yilda YAIMda investitsiyalarning ulushi; $\Delta YAIM$ — yalpi ichki mahsulotning o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati.

ICOR koeffitsiyentini hisoblash uslubiyotiga ko'ra, daromad o'sishining kapitalga nisbati ko'rsatkichi o'tgan yilgi yalpi investitsiyalarning (YAIMga nisbatan, foizda) joriy yildagi YAIM o'sish sur'atiga nisbati sifatida aniqlanadi. Lo'nda qilib aytganda, o'tgan yilgi investitsiyalar hajmi joriy yildagi YAIM o'sishida o'z natijasini namoyon qiladi. Investitsiya mablag'lari samaradorligini aniqlab beruvchi ko'rsatkichlar va ularning tizimlari talaygina bo'lib, ular orasida hisoblash nuqtai nazaridan qulay bo'lgan ICOR ko'rsatkichidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga, xususan real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashda keng foydalanish mumkin.



O'zbekistonda investitsiya iqlimining muhim omillaridan biri xorijiy investorlar uchun moliyaviy-iqtisodiy rag'bat va imtiyozlar tizimining holati hamda amalda qo'llanilish darajasi hisoblanadi. Bunda mazkur rag'bat va imtiyozlar, avvalo, ishlab chiqarish sohasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishga va asosan eksport salohiyatini kuchaytirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Har qanday mamlakatning investitsiya iqlimi qator omillar ta'siri ostida shakllanadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ushbu omillarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: investitsiya salohiyati, investitsiya shart-sharoitlari va investitsiya riski. Xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etishda investitsiya salohiyati muhim rol o'ynaydi. Bunda tabiiy xomashyo resurslari zaxiralari, mehnat resurslari, ishlab chiqarish va iste'mol salohiyati, innovatsion hamda moliyaviy salohiyat alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda investitsiya iqlimi barqarorligini ta'minlashda umumiy iqtisodiy shart-sharoitlar, moliyalashtirishning bozor mexanizmlari, me'yoriy-huquqiy muhit, axborot ta'minoti, ekologik sharoitlar va boshqa omillar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, xorijiy investorlar mamlakat iqtisodiyotiga mablag' kiritishda investitsiya iqlimining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini, ya'ni xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi va chiqib ketishi, inflyatsiya darajasi, YAIM o'sishi, iste'mol va jamg'arma nisbati, foiz stavkalari darajasi hamda investitsiyalarning o'zlashtirilish holatini inobatga oladi. Investitsiya iqlimi investorlarning tavakkalchilik (risk) larini baholash asosida chet el investitsiyalarining kirib kelishiga qulayliklar yaratishi lozim. Chet ellik investorlar qabul qiluvchi mamlakatdagi investitsiya iqlimini, uning xavfsizligini, siyosiy risklar darajasi va ularning sug'urtalanishini, investitsiyalash maqsadlariga muvofiqligini hamda iqtisodiy sharoitlarning nisbiy qulayligini asosiy mezon sifatida baholaydilar. Mamlakatga xos risk darajasi (qarzar masalasi, import-eksport balansi, hukumat barqarorligi va boshqalar), shuningdek, mahalliy sharoitning qo'shni mamlakatlarga nisbatan ustun jihatlari ham muhim hisoblanadi.

Investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlari (import xomashyoga bojxona bojlarini bekor qilish, korporativ soliqni qisman yoki to'liq bekor qilish, soliq imtiyozlari berish), eksport sanoati rayonlari, erkin savdo zonalari, bojxona bojlari amal qilmaydigan hududlarning mavjudligi va boshqa omillar investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, investitsiya iqlimi barqarorligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, investitsiya risklarini sug'urtalash yoki himoya qilish tizimini keng rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning to'liq ishlashiga erishish hamda konvertatsiya masalalarini hal etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, investitsiya iqlimi barqarorligini ta'minlash uchun davlatning xorijiy investitsiyalarga bo'lgan siyosiy munosabati, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, davlat boshqaruv apparati faoliyatining samaradorligi, siyosiy barqarorlik, iqtisodiyotning umumiy holati (o'sish yoki inqiroz), inflyatsiya darajasi, valyuta kursining barqarorligi, soliq va bojxona imtiyozlari, ishchi kuchi qiymati, mehnat resurslaridan foydalanish tartibi, aniq tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklif, kredit narxi, shuningdek jamiyat a'zolarining xorijiy kapital va xususiy mulkchilik shakllanishiga bo'lgan munosabati, jamiyatning iqtisodiy-huquqiy bilim darajasi hamda ishchi kuchining tashkilotchilik va tadbirkorlik qobiliyatini chuqur o'rganish va tahlil qilish zarur.

Soliq imtiyozlarini belgilashda jahon tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, AQSHda korxonalar zarar ko'rib ishlayotgan davrida ma'lum shartlar asosida soliq yukini yengillashtirish amaliyoti qo'llaniladi. Ushbu tajribani O'zbekistonda ham eng zarur sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, buning uchun qat'iy soliq nazoratini o'rnatish talab etiladi.

O'zbekistonda qulay investitsiya iqlimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xorijiy investorlar uchun turli moliyaviy imtiyozlar va huquqlar belgilangan, bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, investitsiya iqlimini yanada yaxshilash uchun quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirish zarur: so'mning barqarorligini ta'minlash va xarid qobiliyatini oshirish; bank foiz stavkalarini barqarorlashtirish; islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini inobatga olgan holda soliq tizimini ilmiy asosda takomillashtirish; ma'muriy-buyruqbozlik holatlariga chek qo'yish; O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining nufuzini va likvidligini oshirish, xorijiy investorlarni ularga jalb etish hamda qimmatli qog'ozlar bozorini izchil rivojlantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston korxonalari iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) ulushini oshirish jarayonida ekonometrik modellash imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki ekonometrik modellar investitsiya oqimlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqroq baholash, istiqbolli yo'nalishlarni belgilash hamda resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Shu jihatdan, investitsiya jarayonlarini ilmiy asosda boshqarish orqali iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish va ularning natijadorligini ta'minlash mumkin.

Shu sababli, TXIni milliy iqtisodiyotga keng jalb etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: ayrim tarmoqlar va mintaqalarda (jumladan,

erkin iqtisodiy zonalarda) xorijiy investorlar uchun real ishlaydigan imtiyozlar tizimini yaratish; xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuqori turuvchi organlar hamda mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarni aniq chegaralash; barqaror tashqi savdo qonunchiligini, shu jumladan, erkin iqtisodiy zonalar va konsessiyalar bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish; soliqlarni kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish; xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning samarali mexanizmini yaratish; iqtisodiyot tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish; iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini individual loyihalar asosida xususiylashtirish; birja va boshqa bozorlarda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar paketlarining bir qismini xorijiy investorlarga taklif etish; mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni xorijiy investorlar ishtirokida sotish yoki hamkorlik asosida boshqaruvga berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025 <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. Economic growth and under-investment: A nonparametric approach // ScienceDirect. — URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0165176519304173>
3. A simple regulatory incentive mechanism applied to electricity transmission pricing and investment // ScienceDirect. — URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0140988318303670>
4. Андрианов, А. Ю., Валдайцев, С. В., Воробьев, П. В. и др. Инвестиции: учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: ТК «Велби», Изд-во «Проспект», 2008. — 58 с.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Investitsiya faoliyati to'g'risida" (1998-yil 24-dekabr), 2-modda. — NORMA.
6. Сычева, Н. В. Оценка эффективности инвестиционной деятельности с учетом способа финансирования // Вестник Сибирского государственного аэрокосмического университета имени академика М. Ф. Решетнева. — 2010. — Вып. 3. — С. 209–215.
7. Воскресенский, В. В. Оценка эффективности инвестиционных процессов: анализ зарубежного опыта // Российское предпринимательство. — 2011. — Т. 12. — № 7. — С. 10–16.
8. Кириллов, Ю. В., Досуужева, Е. Е. Методика оценки коммерческой эффективности инвестиционных проектов // Инновации и инвестиции. — 2013. — № 32 (335). — С. 45–52.
9. Nodirxonov, U. Mamlakat reytingiga ko'ra xorijiy investitsiyalar // Bozor, pul va kredit. — 2000. — № 8. — B. 47.
10. Vaxabov, A. V., Xajibakiev, Sh. X., Muminov, N. G. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. — Toshkent: "Moliya", 2010. — B. 155–156.
11. Siddiqov, A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi // Bozor, pul va kredit. — 2004. — № 7–8. — B. 48.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100